

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНING ТЎҒРИДАН-ТЎҒРИ ИНВЕСТИЦИЯЛАР
ЖАМҒАРМАСИНING ЯҒОНА МУАССИСИ
ҚАРОРИ**

**“Ўзбекистон Республикасининг Тўғридан-тўғри инвестициялар жамғармаси”
масъулияти чекланган жамияти шаклидаги инвестиция компаниясининг
устав капитали миқдорини ўзгартириш ҳақида**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг Тўғридан-тўғри инвестициялар жамғармаси фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2022 йил 7 сентябрдаги ПФ-215-сон Фармонида, шунингдек, Кузатув кенгашининг 2025 йил 5 сентябрдаги 17-сон ва 28 октябрдаги 18-сон мажлис баёнлари билан “Замонавий “Инфинити” савдо-кўнгилочар маркази қурилиши ва ремонт ишларини яқунлаш ҳамда фойдаланишга топшириш” (кўп тармоқли “mixed-use” мажмуаси) лойиҳасини амалга ошириш доирасида жамғарма иштироки маъқулланган ва унга асосан жамғарманинг ягона муассиси қарор қилади:

1. Лойиҳа доирасида Ўзбекистон Республикасининг Тўғридан-тўғри инвестициялар жамғармасининг “Infinity City Center” масъулияти чекланган жамияти устав капиталининг 40 фоизи улушида (260,0 млрд сўм миқдоригача) иштирок этиши маъқуллансин.
2. Ўзбекистон Республикасининг Тўғридан-тўғри инвестициялар жамғармасининг устав капитали юқоридагидан келиб чиқиб 260,0 млрд сўмга оширилсин.
3. Ўзбекистон Республикасининг Тўғридан-тўғри инвестициялар жамғармасининг устав капитали 479 493 108 185 сўм 93 тийин миқдорида Ўзбекистон Республикаси Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси маблағлари ҳисобидан шакллантирилган бўлиб, устав капиталини Ўзбекистон Республикаси Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси маблағлари ҳисобидан тўлдириш эвазига 739 493 108 185 сўм 93 тийин миқдorigа етказилсин.
4. Мазкур қарор имзоланган кундан эътиборан кучга киради.

**Жамғарманинг ягона муассиси –
Ўзбекистон Республикаси
Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси
ижрочи директори**



Ш. ВАҒАЕВ

Тошкент ш.,
2025 йил 29 октябр,
15 -сон

**“O‘zbekiston Respublikasining To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi”
mas’uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi investitsiya kompaniyasi**

USTAVI

“O‘zbekiston Respublikasining To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi” mas’uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi investitsiya kompaniyasi ustavi (keyingi o‘rinlarda – “**Ustav**”) O‘zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 7-sentabrdagi PF-215-son Farmoni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Ustav O‘zbekiston Respublikasining To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasining (keyingi o‘rinlarda – “**Jamg‘arma**”) faoliyatini tashkil etish tartibini, uning huquqiy maqomini va investitsiya kompaniyasi tomonidan jamg‘armani boshqarish tartibi xususiyatlarini belgilaydi.

2. Ushbu Ustavda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Jamg‘armaning muassisi – O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi;

Jamg‘armani boshqaruvchi investitsiya kompaniyasi – dastlabki ustav kapitali jamg‘armaning muassisi mablag‘lari hisobidan shakllantiriladigan “O‘zbekiston Respublikasining To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi” mas’uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi investitsiya kompaniyasi;

alohida bank hisob raqami – jamg‘armani boshqarish jarayonida olingan pul mablag‘lari hamda daromadlar hisobi yuritiladigan investitsiya kompaniyasining alohida bank hisob raqami.

3. Jamg‘arma yuridik shaxs tashkil etmagan holda tashkil etiladi. Jamg‘armani boshqaruvchi investitsiya kompaniyasi esa, “O‘zbekiston Respublikasining To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi” mas’uliyati cheklangan jamiyati (keyingi o‘rinlarda – “**Jamiyat**”) yuridik shaxs hisoblanadi.

4. Jamiyatning to‘liq va qisqartirilgan firma nomi:

a) davlat tilida:

to‘liq nomi – “O‘zbekiston Respublikasining To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi” mas’uliyati cheklangan jamiyati;

qisqartirilgan nomi – “O‘zTIJ” MChJ;

b) ingliz tilida:

to‘liq nomi – “Direct Investments Fund of the Republic of Uzbekistan” Limited Liability Company;

qisqartirilgan nomi – “UzDIF” LLC;

v) rus tilida:

to‘liq nomi – Общество с ограниченной ответственностью «Фонд прямых инвестиций Республики Узбекистан»;

qisqartirilgan nomi – ООО «УзФПИ».

5. Jamiyatning pochta manzili va rekvizitlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar:

100084, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Minor MFY, Amir Temur shoh ko‘chasi, 95a-uy manzilida ijara shartnomasi asosida joylashtiriladi;

e-mail: info@udif.uz e-xat: uzdif@e-xat.uz rasmiy sahifa (sayt): <https://www.udif.uz/>

STIR 306601995, IFUT (ОКЭД) 64.99.0

2-bob. Jamiyatning faoliyati

6. Jamiyat faoliyatini mamlakatda investitsiya muhitining jozibadorligini yanada oshirish, hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish hamda yangi tashabbus va loyihalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish maqsadida amalga oshiradi.

Jamiyatning faoliyat muddati cheklanmagan.

7. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" Qonuniga asosan, investitsiyalar jamiyat tomonidan foyda olish maqsadida tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlarni o'z ichiga oladi.

8. Jamiyat o'z doirasida:

iqtisodiyotdagi turli segmentlarning rivojlanishiga turtki berish, biznesni (ishlab chiqarishni) qayta tiklash va jonlantirish, mavjud biznesni (ishlab chiqarishni) kengaytirish uchun moliyalashtirishning muqobil manbalarini shakllantirishga sharoit yaratish;

tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish;

biznesni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari tashkil etish va qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida ish ko'radi.

2.1. Investitsiya konsentratsiyasi

9. Jamiyat tomonidan investitsiyalar tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida bozor qiymati bo'yicha hisoblangan aksiyalarning (ulushlarning) 49 foizigacha ulushida ishtirok etish, mol-mulk sotib olish, milliy va xorijiy valyutada qarzlarni berish, shuningdek, qonunchilikda zid bo'lmagan boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

10. Jamiyat tomonidan bitta loyiha uchun kiritiladigan investitsiyalarning maksimal miqdori ushbu loyiha bo'yicha umumiy investitsiyalar hajmining 49 foizidan oshmasligi lozim. Bunda, jamiyatning O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan shakllantiriladigan investitsiyalarining bitta loyiha uchun maksimal hajmi 20 million AQSh dollaridan oshmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan shakllantiriladigan investitsiyalari maksimal hajmining oshirilishiga yirik va muhim ahamiyatga ega investitsiya loyihalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

2.2. Investitsiyalarni jalb qilish usullari

11. Jamiyat investitsiyalarni quyidagi usullar bilan jalb qiladi:

kredit (qarz) olish va jamiyatning ustav kapitaliga investorlarning pul mablag'larini jalb qilish;

yuridik shaxslarni tashkil etish yoki ularning ustav kapitalida (ustav fondida), shu jumladan, mol-mulk sotib olish yo'li bilan ishtirok etish;

yirik institutsional va strategik investorlar bilan hamkorlik o'rnatish, shu jumladan, nufuzli xalqaro moliya markazlarining yurisdiksiyalaridan foydalanish;

qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa ko'rinishlarda.

2.3. Investitsiya loyihalarini tanlash va moliyalashtirish jarayoni

12. Jamiyat tomonidan investitsiya loyihalarini tanlash va moliyalashtirish ushbu loyihalarning moliyaviy jozibadorligi va samaradorligidan kelib chiqib, mustaqil ravishda investitsiya siyosatida belgilangan mezon va talablarni hisobga olgan holda quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

a) to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni amalga oshirish yuzasidan:

ulush (pay) – yuridik shaxslarni tashkil etish yoki tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etish, qisqa va uzoq muddatli likvidli aktivlarga pul mablag'lari kiritish yoki qarzlarni berish ko'rinishida investitsiya qilish imkonini beruvchi vositalar;

mol-mulk – ko'char va ko'chmas mulk obyektlariga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar.

Bunda jamg'arma mablag'lari "Greenfield" va "Brownfield" loyihalarini amalga oshirish uchun jalb etilishi mumkin. Xususan, "Greenfield" loyihalari mavjud infratuzilma yoki cheklovlarni

hisobga olmasdan noldan boshlanadigan yangi loyihalar yoki tashabbuslarga investitsiya qilish imkonini bersa, "Brownfield" loyihalari esa mavjud ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, biznesni qayta tiklash yoki kengaytirish, qurilish va ta'mirlash ishlarini yakunlash hamda foydalanish uchun topshirishga investitsiya qilish imkonini beradi.

b) kapital bozori operatsiyalari, xususan:

aksiyalar – kompaniya kapitalida ulushga ega bo'lish huquqini beruvchi ulushli qimmatli qog'ozlar;

obligatsiyalar – emitentning qarz majburiyatlarini ifodalovchi qarz qimmatli qog'ozlari;

hosilaviy moliya vositalari (derivativlar) – xejirlash yoki spekulyatsiya uchun foydalaniladigan opsionlar, fyucherslar va svoplar.

c) banklar yoki boshqa moliya muassasalari bilan operatsiyalar, xususan:

kredit resurslari – banklar yoki boshqa moliya muassasalariga kreditlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan kapital;

korrespondent hisobvarag'i – banklarga korrespondent hisobvarag'i (aylanma mablag'ini to'ldirish) uchun ajratilgan resurs;

depozit hisobvarag'i – foiz yoki foizlardan qo'shimcha daromad olish maqsadida ma'lum muddatga pul qo'yish mumkin bo'lgan bank hisobvarag'i;

d) jamiyatning investitsiya kiritgan tashkilotlari yoki boshqa tijorat tashkilotlariga qarz (zaym) – investitsiya ta'minoti (sug'urta, kafolat, garov) evaziga milliy va xorijiy valyutada qarzlar berish;

e) Islom moliyasi – islom huquqi (shariat) tamoyillariga asoslangan investitsiya qilish imkonini beruvchi loyihalarga sarmoya kiritish va/yoki qarz berish;

f) yashil loyihalar – barqaror rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan turli tashabbuslar va loyihalarni o'z ichiga olgan investitsiya qilish imkonini beruvchi loyihalar;

qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa ko'rinishlarda.

1-§. Ijroiya organining investitsiyalar va investitsiya faoliyatida asosiy vazifalari va funksiyalari

13. Ijroiya organi o'z doirasida:

investitsiyalar va investitsiya faoliyatini amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga xorijiy va/yoki mahalliy investitsiyalarni, shuningdek, yuqori malakali kadrlar va innovatsion texnologiyalarni jalb etish;

xorijiy investorlar bilan o'zaro munosabatlarni rivojlantirish orqali investitsiya faoliyatini rag'batlantirish;

qulay investitsiya muhitini yaratishga ko'maklashish va targ'ib qilish, O'zbekiston Respublikasining investitsiya imkoniyatlari ijobiy idrok etilishi maqsadida ish ko'radi.

14. Ijroiya organi tomonidan investitsiyaviy loyihalarni tanlash va moliyalashtirish bitimlar bo'limi vositasida, aktivlarni boshqarish – aktivlarni boshqarish bo'limi vositasida amalga oshiriladi.

15. Investitsiya kompaniyasidagi bitimlar bo'limi (Deals Division, DD) – bu investitsiyalar bo'yicha bitimlarni izlash, tahlil qilish va tuzish uchun mas'ul bo'lgan bo'linmadir. Bunga kompaniyaga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, shuningdek, qo'shilish va sotib olish (mergers and acquisitions, M&A) yoki aktivlarni sotib olish kabi boshqa moliyaviy operatsiyalar kiradi. Ushbu bo'linmaning asosiy vazifasi investitsiya loyihalarini topish va ularni amalga oshirishdan iborat.

16. Quyidagilar bitimlar bo'limining asosiy vazifalari hisoblanadi:

bitimni izlash va jalb qilish – potensial imkoniyatlarni izlash, moliyaviy jozibadorligi va samaradorligidan kelib chiqib tanlash va tahlil o'tkazish;

skrining o'tkazish (ichki tekshiruv) – huquqiy va moliyaviy imkoniyatlarni baholash va tahlil qilish;

muzokaralar – kontragentlar bilan muzokaralar olib borish, bitim shartlarini kelishish;

bitimni tuzish – bitimni tayyorlash va imzolash, uning bajarilishini nazorat qilish;

monitoring va hisobot – bitimlar ijrosini kuzatish, rahbariyat uchun hisobot tayyorlash;

hamkorlikni rivojlantirish – hamkorlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni mustahkamlash, aloqalar tarmog'ini kengaytirish.

17. Ma'lumotlarni oshkor qilmaslik to'g'risida bitim imzolagandan so'ng, bitimlar bo'limi investitsiya taklifini tashabbuskori tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga asoslanib, dastlabki tahlil va baholashni boshlaydi. Baholash bosqichida bitimlar bo'limi ko'rib chiqilayotgan investitsiya imkoniyati foydali emasligini va jamiyatning investitsiya siyosati mezonlariga javob bermasligini aniqlasa, tahlilni to'xtatishi mumkin.

Bitimlar bo'limi ko'rib chiqilayotgan investitsiya imkoniyatining dastlabki tahlilini (tijorat, moliyaviy va boshqalar) tashabbuskor kompaniya tomonidan taqdim etilgan moliyaviy model asosida o'tkazadi. Bitimlar bo'limi, shuningdek, tashabbuskor kompaniyaning egalarini aniqlashi va tekshirishi, investitsiya imkoniyati to'g'risidagi hisobotiga ma'lumotlarni kiritishi mumkin.

18. Bitimlar bo'limi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar loyihasini o'rganish (skrining) o'tkazganidan so'ng, u keyingi bosqich kompleks baholashga ruxsat olish uchun investitsiya taklifini kuzatuv kengashi va/yoki uning investitsiya qo'mitasiga taqdim etadi.

Agar, kuzatuv kengashi va/yoki uning investitsiya qo'mitasi investitsiya taklifini rad etsa, bitimlar bo'limi investitsiya taklifini yakunlashi shart.

Agar, kuzatuv kengashi va/yoki uning investitsiya qo'mitasi keyingi bosqichga o'tishdan oldin qo'shimcha tekshiruvni talab qilsa, bitimlar bo'limi qo'shimcha baholash o'tkazadi va yangilangan investitsiya taklifini kuzatuv kengashi va/yoki uning investitsiya qo'mitasiga qayta kiritadi.

Agar, kuzatuv kengashi va/yoki uning investitsiya qo'mitasi keyingi bosqich kompleks baholash uchun investitsiya taklifini ma'qullasa, bitimlar bo'limi investitsiyadan oldingi hujjatlarni ishlab chiqishni boshlaydi.

19. Ijroiya organi bosh direktori fuqarolik-huquqiy xususiyatga ega shartnoma tuzish sharti shaklida loyiha doirasida zarur bo'lgan mutaxassislarini jalb qiladi.

20. Investitsiya kompaniyasidagi aktivlarni boshqarish bo'limi (Asset Management Division, AMD) – jamg'arma aktivlarini boshqarishga mas'ul bo'lgan bo'linma. Uning vazifasi – bitimni yopishning so'ngi bosqichlarida (yopilishdan oldingi) ishtirok etish, xususan, baholash, tegishli o'rganish va boshqa investitsiya tavsiyalarini o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan jarayonlarda faol ishtirok etadi.

21. Aktivlarni boshqarish bo'limi yangi aktiv kiritilganidan so'ng aktivni keyingi boshqarish uchun mas'ul hisoblanib, u olingan quyidagi ma'lumotlar doirasida faoliyatini muvofiqlashtiradi:

kompleks baholash: yuridik, moliyaviy va tijorat;

investitsiya hujjatlari: investitsiya va boshqa muhim kelishuvlar, aksiyadorlar tarkibi, ustav, siyosatlar va boshqa hujjatlar (agar mavjud bo'lsa), kadastrlar;

moliyaviy hisobot;

prezentatsiyalar, kuzatuv kengashi qarorlari.

22. Quyidagilar aktivlarni boshqarish bo'limining asosiy vazifalari hisoblanadi:

maslahat va tavsiyalar – aktivlarni boshqarish va investitsiya vositalarini tanlashning yakuniy bosqichida tavsiyalar berish;

aktivlarni baholash – yilda bir marta aktivlarni baholash (konsalting) va uning natijalari bo'yicha jamiyatning boshqaruv organiga hisobot taqdim etish;

moliyaviy muhandislik (finance engineering) va leveraj (leverage) – aktivlarni boshqarishda yangi moliyaviy vositalar, strategiyalar va yechimlarni ishlab chiqish, investitsiya portfellarini optimallashtirish, shuningdek, investitsiyalardan olinadigan potensial foydani oshirish uchun qarz mablag'laridan foydalanish;

korporativ boshqaruvni yo'lga qo'yish – ishtirokchilar (aksiyadorlar), rahbariyat va kompaniyaning boshqa manfaatdor tomonlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi jarayonlar, qoidalar va tuzilmalar tizimini tashkil etish, bunda samarali boshqaruv, mas'uliyat, shaffoflik va barcha ishtirokchilarning manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash, shuningdek, strategik rahbarlik, qarorlar qabul qilish, faoliyatni nazorat qilish va qonun hujjatlariga rioya qilish;

operatsion boshqaruvni yaxshilash – samaradorlikni oshirish, biznes-jarayonlarni optimallashtirish, xususan, tashkilotning barcha darajalarida jarayonlarni doimiy tahlil qilish va takomillashtirish;

monitoring va hisobot – portfellar holatini doimiy nazorat qilish va jamiyatning boshqaruv organi uchun hisobotlar tayyorlash.

23. Bitimlar bo‘limining va aktivlarni boshqarish bo‘limining mutaxassisleri o‘z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini bajarishda jamiyat manfaatlarini ko‘zlab halol va oqilona harakat qilishlari kerak. Ular o‘zlariga yuklangan vazifalarni bajarishda, investitsiya loyihalarini tahlil qilish va baholash bo‘yicha harakatlarini, investitsiya taklifining tahliliy ma’lumotlari va hisobotlarini o‘z imzolari bilan tasdiqlashi lozim, bunda o‘zlarining aybli harakatlari (harakatsizligi) tufayli jamiyatga yetkazilgan zarar uchun, agar qonun hujjatlarida boshqa asoslar va javobgarlik miqdorlari ko‘rsatilgan bo‘lmasa, jamiyat oldida javobgar bo‘ladilar.

24. Jamiyat investitsiyaviy operatsiyalarni, shu jumladan, qimmatli qog‘ozlarga doir bitimlar hamda operatsiyalarni amalga oshirishda, qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirish vakolatiga ega ishtirokchilarni investitsiya vositachisi, investitsiya maslahatchisi, investitsiya fondi, investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi, transfer-agent yoki qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish asosida jalb etadi.

2-§. Investitsiya qo‘mitasining investitsiyalar va investitsiya faoliyatida asosiy vazifalari va funksiyalari

25. Kuzatuv kengashi tomonidan investitsiya qo‘mitasi tashkil qilinishi mumkin.

26. Investitsiya qo‘mitasining son tarkibi uch nafar a‘zodan iborat etib belgilanadi, qo‘mita tarkibiga bir nafar mustaqil a‘zo kiritiladi. Bunda mustaqil a‘zolikka nomzodlar kuzatuv kengashi tomonidan tanlov asosida ko‘rib chiqiladi.

Kuzatuv kengashi investitsiya qo‘mitasining son tarkibiga o‘zgartirish kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

27. Investitsiya qo‘mitasi (Investment Committee, IC) – bu investitsiya taklifini moliyaviy jozibadorligi va samaradorligidan kelib chiqib, mustaqil ravishda investitsiya siyosatida belgilangan mezon va talablarni hisobga olgan holda investitsiya loyihalarini tanlash va moliyalashtirish to‘g‘risida qaror qabul qiluvchi mutaxassislar guruhi. Uning tarkibiga malakali mutaxassislar fond boshqaruvchilari, tahlilchilar, yuristlar va boshqa ekspertlar kiradi.

28. Investitsiya qo‘mitasining a‘zolari oliy ma’lumotga, investitsiyalar va investitsiya faoliyati maqsadlari va vazifalariga mos keluvchi malaka va tajribaga ega bo‘lishi lozim.

29. Investitsiya loyihalarini tanlash ular moliyaviy qoplanishi, tijorat jozibadorligi va samaradorligi baholanishi hisobga olingan holda investitsiya qo‘mitasi tomonidan mustaqil amalga oshiriladi, bunda quyidagi asosiy mezonlarga rioya qilinadi:

investitsiya loyihalarining moliyaviy va iqtisodiy samaradorligi;

loyihalarga ajratiladigan investitsiyalar respublikaning ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishga va uning raqobatbardoshligini yanada oshirishga yo‘naltirilishi kerak; yangi ish o‘rinlari yaratish;

ishlab chiqarish rejalashtirilgan mahsulotlar va xizmatlarning ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligi va boshqa imkoniyatlarini tasdiqlaydilar.

30. Quyidagilar investitsiya qo‘mitasining asosiy vazifalari hisoblanadi, o‘z doirasida:

mahalliy hamda xorijiy investorlar va moliyaviy institutlar bilan birgalikda foyda keltiradigan investitsiyalarni O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti tarmoqlarida amalga oshirish;

ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va innovatsion texnologiyalarni jalb qilish, shuningdek, respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish;

xususiy mahalliy va xorijiy investorlar bilan uzoq muddatli o‘zaro manfaatli sheriklik munosabatlarini shakllantirish orqali investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish va rivojlantirish;

investitsiya takliflarini baholash, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

investitsiya muhiti yaxshilanishiga ko‘maklashish, shuningdek, respublikaning investitsiya salohiyati va imkoniyatlarini chet elda keng targ‘ib qilish.

31. Yuklangan vazifalarga muvofiq investitsiya qo‘mitasi quyidagi funksiyalarni bajaradi: investitsiya kiritish uchun ustuvor yo‘nalishlarni hisobga olgan holda investitsiya loyihalarini tanlab oladi, moliyaviy qoplashni, tijorat jozibadorligi va ularni amalga oshirish samaradorligini belgilaydi;

yirik institutsional va strategik xorijiy investorlar bilan hamkorlikni tashkil qiladi;

investorlar bilan birgalikda riskni teng taqsimlash prinsipi asosida kapital qaytarilishining zarur darajasini ta‘minlaydigan investitsiya loyihalarini tahlil qilish va baholashni, tizimlashtirish, moliyalashtirishni amalga oshiradi.

32. Jamiyatning investitsiyaviy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan qiymati 1 million AQSh dollaridan ortiq miqdorni tashkil etgan bitim yoki bir necha bir-biriga bog‘langan bitimlarni amalga oshirish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish, investitsiya loyihalari bo‘yicha jamg‘arma mablag‘lari hisobidan shakllantiriladigan investitsiyalarning (jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar va kapital bozori operatsiyalari ko‘rinishida) amalga oshirilishi jamiyatning kuzatuv kengashi roziligisiz yo‘l qo‘yilmaydi.

33. Jamiyatning kuzatuv kengashi va/yoki uning investitsiya qo‘mitasi tomonidan investitsiya taklifi ma‘qullanishi yuzasidan qarori qabul qilinganidan so‘ng, kompleks baholash ko‘rib chiqilayotgan investitsiya imkoniyatining texnik murakkabligiga qarab, mazkur investitsiya taklifi ularning qarori asosida kompleks baholashdan o‘tkaziladi.

3-§. Investitsiya loyihalarini kompleks baholash

34. Investitsiya loyihasini kompleks baholash o‘tkazish maqsadi asosli qaror qabul qilish uchun tavakkalchiliklarni, moliyaviy holatni, huquqiy va operatsion jihatlarni baholashdan iborat.

35. Kompleks baholash (Due Diligence, DD) – bu investitsiya kiritishdan oldin kompaniya yoki loyiha haqidagi ma‘lumotlarni sinchkovlik bilan tekshirish va puxta tahlil qilish jarayonidir, shu jumladan, potensial investitsiyalar bilan bog‘liq risklarni boshqarish va imkoniyatlarni baholashga qaratilgan tartib-taomillar majmuidir. Bu jarayon jamiyatga asosli qarorlar qabul qilish, risklarni minimallashtirish va o‘z mablag‘laridan samarali foydalanishiga ishonch hosil qilish imkonini beradi.

36. Kompleks baholash quyidagi ko‘rinishlarda amalga oshiriladi:

1) Moliyaviy tekshiruv, ushbu bosqich biznesning moliyaviy jihatdan qanchalik barqaror ekanligini va likvidlik yoki majburiyatlar bilan bog‘liq potensial muammolar mavjudligini aniqlashga yordam beradi;

2) Yuridik tekshiruv, ushbu bosqich kompaniyaning barcha yuridik majburiyatlari tushunarli va shaffofligiga va biznes potensial yuridik muammolarga duch kelmasligiga ishonch hosil qilishga imkon beradi;

3) Operatsion tekshiruv, ushbu bosqich kompaniya qanchalik samarali ishlayotganini va u o‘z operatsiyalarini kengaytirish yoki yaxshilash imkoniyatiga ega ekanligini tushunishga imkon beradi;

4) Bozor va raqobat tekshiruv, ushbu bosqich loyihaning qanchalik raqobatbardoshligi va bozorda qanday istiqbolga ega ekanligini tushunishga yordam beradi;

5) Risklarni tekshirish, ushbu bosqich investitsiyalarga qanday tahdidlar ta‘sir qilishi mumkinligini va ularni qanday minimallashtirish mumkinligini tushunishga yordam beradi;

6) Ijtimoiy va ekologik javobgarlik, ushbu bosqich tabiat, jamiyat va boshqaruv muammolarini hal etish (Environmental, Social, and Governance - ESG) tamoyillariga rioya qilishga yo‘naltirilganligini aniqlashga yordam beradi;

7) Sinergiya va strategik muvofiqlik, agar investor kompaniyani qo‘shib yuborish yoki birlashtirish uchun sotib olishni o‘ylayotgan bo‘lsa, yangi kompaniya investorning mavjud aktivlari va strategiyasi bilan qanday uyg‘unlashishini baholashga yordam beradi.

37. Xalqaro tajribadan kelib chiqib, investitsiya loyihalarini kompleks baholash, shuningdek, jamiyatning mablag‘lari hisobidan kiritilgan investitsiyalar bo‘yicha aktivlarni baholash yoki auditorlik tekshiruvini o‘tkazish maqsadida jamiyat tomonidan mustaqil ravishda (to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish asosida) yoki investitsiya loyihasining ishtirokchisi tomonidan yetakchi xalqaro (mahalliy) auditorlik va/yoki konsalting firmalari (yoki ularning joylardagi vakillari) jalb qilinadi.

38. Investitsiya loyihasini kompleks baholash natijalari yuzasidan jamiyat boshqaruv organlari investitsiya loyihasini kompleks baholovchi tashkilotlarning majburiyatlari bo‘yicha javob

bermaydi, investitsiya loyahasini kompleks baholovchi tashkilotlari esa jamiyat boshqaruv organlarining majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi.

39. Investitsiya loyihasi kompleks baholashdan o'tkazilganidan so'ng, jamiyatning kuzatuv kengashi va/yoki uning investitsiya qo'mitasi investitsiya taklifini ko'rib chiqadi va bitimni tasdiqlashi yoki rad etishi mumkin.

Rad etilgan taqdirda, bitimlar bo'limi qo'shimcha tahlilni taqdim etishi yoki bitimni butunlay bekor qilishi kerak.

Tasdiqlangan taqdirda, investitsiya loyihasi moliyalashtirish bilan yakunlanadi.

4-§. Kuzatuv kengashining investitsiyalar va investitsiya faoliyatida asosiy vazifalari va funksiyalari

40. Kuzatuv kengashining investitsiya loyihalarini tanlash va moliyalashtirish jarayonidagi asosiy vazifalari quyidagilar:

respublika iqtisodiyotining ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishga, shuningdek, uning raqobatbardoshligini yanada oshirishga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va innovatsion texnologiyalarni jalb qilish;

xususiy mahalliy va xorijiy investorlar bilan uzoq muddatli o'zaro foydali sheriklik munosabatlarini yo'lga qo'yish orqali investitsiya faoliyatini rag'batlantirish va rivojlantirish;

investitsiya takliflarini baholash, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

investitsiya muhitini yaxshilashga, shuningdek, respublikaning investitsiya salohiyati va imkoniyatlarini xorijda keng targ'ib qilishga ko'maklashish.

41. Investitsiya qo'mitasi tomonidan (agar mavjud bo'lsa) investitsiya siyosatida belgilangan mezon va talablar doirasida tanlangan investitsiya loyihalari kuzatuv kengashi ko'rib chiqishi uchun kiritiladi. Kuzatuv kengashi mazkur investitsiya loyihalarini ko'rib chiqishi va uni ma'qullashi to'g'risida yoki asoslar bo'yicha uni rad etishi to'g'risida qaror qabul qiladi.

42. Kuzatuv kengashi investitsiya loyihalarini tanlash va moliyalashtirish yuzasidan ushbu loyihalarning moliyaviy jozibadorligi va samaradorligidan kelib chiqib, mustaqil ravishda investitsiya siyosatida belgilangan mezon va talablarni hisobga olgan holda ko'rib chiqadi.

43. Loyihaoldi ishlari, shu jumladan, loyihaning texnik-iqtisodiy asoslari va loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish hamda loyihani moliyalashtirishga tayyorlash uchun zarur bo'lgan boshqa turdagi ekspertizadan o'tkazish xarajatlari jamiyatning mablag'lari hisobidan kuzatuv kengashining qaroriga asosan moliyalashtiriladi.

44. Hududiy loyiha guruhlarini tomonidan ishlab chiqilgan loyihalarni jamiyatning investitsiya siyosatida belgilangan mezon va talablarni hisobga olgan holda tanlab olib, hududlarda tadbirkorlar ishtirokida tashkil etilgan, ushbu tadbirkorlarning ustav kapitalida (ustav fondida) nazorat paketiga ega bo'lgan xolding kompaniyalari orqali ularning 49 foizgacha bo'lgan qismini kuzatuv kengashining qaroriga asosan moliyalashtiriladi.

45. Jamiyatning kuzatuv kengashiga:

sanoat va infratuzilma obyektlarini yaratish bo'yicha loyihalarni moliyalashtirish maqsadida bir loyihaga investitsiyalarning belgilangan hajmi doirasida ustav kapitalida 100 foiz ishtirok etish orqali operatsion tashkilotlarni tashkil etish;

mustaqil ravishda o'z mol-mulkini, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav kapitalidagi ulush va aksiyalarini erkin holda qonunchilikda xususiyashtirish bo'yicha belgilangan tartiblarni qo'llamagan holda sotish huquqi beriladi.

Jamiyatning kuzatuv kengashi operatsion tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish, shu jumladan, loyiha guruhlarini bilan o'zaro hamkorlik qilish hamda ularning loyihaviy takliflarini moliyalashtirish mexanizmini ko'zda tutuvchi nizomni tasdiqlaydi.

5-§. O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi va investorlar

46. O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi Jamg'armaning yagona muassisi hisoblanadi hamda investorlar tomonidan jamg'arma bilan birgalikda loyihalarga investitsiya kiritish to'g'risida qaror qabul qilingandan so'ng jamg'arma kapitali shakllantiriladi.

47. Loyihaga mablag'larni investitsiyalash to'g'risidagi bitim kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilingandan keyin mazkur qaror nusxalari taqdim qilingan holda jamg'arma muassisiga jamg'armani to'ldirishga ijroiya organi tomonidan so'rov yuboriladi.

48. So'rovga muvofiq jamg'arma muassisi tegishli investitsiya loyihasiga investitsiya kiritish uchun jamg'armani to'ldirishga mablag'larni jamiyatning alohida bank hisob raqamiga o'tkazadi.

49. Jamiyat uning alohida bank hisob raqamiga pul mablag'lari o'tkazilgandan keyin jamg'armaning muassisiga investitsiya paylarini taqdim etadi.

50. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 7-sentabrdagi PF-215-son Farmoni bilan, jamiyat tomonidan bitta loyiha uchun kiritiladigan investitsiyalarning maksimal miqdori ushbu loyiha bo'yicha umumiy investitsiyalar hajmining 49 foizidan oshmasligi belgilangan. Investitsiyaviy loyihalar doirasida xarid qilinadigan xizmatlar (ishlar, tovarlar) investitsiya xizmatlari va operatsiyalari hisoblanadi va jamiyat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzilishiga yo'l qo'yiladi (bundan, jamiyatning ma'muriy-xo'jalik faoliyati uchun xarid qilinadigan xizmatlar (ishlar, tovarlar) mustasno).

3-bob. Jamiyatni boshqarish

51. Jamg'armaning muassisi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi jamiyatning boshqaruv organlaridir.

52. Jamg'armaning muassisi jamiyat boshqaruvining oliy organi hisoblanadi, uning tarkibiga yagona ishtirokchi yoki uning tomonidan ishonchnoma asosida vakillari sifatida tayinlangan shaxslar kiradi.

Jamg'armaning muassisi vakolatlari jumlasiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar jamiyatning yagona ishtirokchisi tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi va yozma ravishda rasmiylashtiriladi.

53. Jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan, O'zbekiston Respublikasining Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri kuzatuv kengashi raisi hisoblanadi.

Kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a'zolar (direktorlar), shu jumladan, xorijiy a'zolar kirishi mumkin.

54. Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi tomonidan amalga oshiriladi.

1-§. Jamg'armaning muassisi vakolatlari

55. Jamg'arma muassisining mutlaq vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilash, shuningdek, tijorat tashkilotlarining boshqa birlashmalarida ishtirok etish to'g'risida qaror qabul qilish;

jamiyat ustav kapitalining miqdorini o'zgartirish;

jamiyat ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;

jamiyatning kuzatuv kengashini tuzish va uni saylash va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

jamiyatning taftish komissiyasini tuzish (taftishchisini saylash) va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

yillik hisobotlarni va yillik buxgalteriya balanslarini tasdiqlash;

jamiyatning sof foydasini taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilish;

jamiyat organining faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarni tasdiqlash (qabul qilish);

jamiyatning investitsiya siyosatini tasdiqlash, shu jumladan, o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qilish;

auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish, auditorlik tashkilotlarini hamda ularning xizmatlariga to'lanadigan haqning eng ko'p miqdorini aniqlash;

boshqa yuridik shaxslarni, vakolatxonalar va filiallarni tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
jamiyatni qayta tashkil etish yoki tugatish to'g'risida qaror qabul qilish;
tugatuvchini tayinlash va tugatish balanslarini tasdiqlash;

bitim yoki bitimning predmeti bo'lgan mol-mulkning qiymati bo'yicha haq to'lash summasi jamiyatning oxirgi hisobot davridagi buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari asosida aniqlangan mol-mulki qiymatining besh foizidan ortiq bo'lgan hollarda tuzilishidan manfaatdorlik bo'lgan bitimlarni tuzish to'g'risidagi qarorni qabul qilish;

yirik bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinadigan kundan oldingi oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari asosida aniqlangan jamiyat mol-mulki qiymatining ellik foizidan ortiq bo'lgan mol-mulkni olish, tasarrufdan chiqarish yoki jamiyat bevosita yoxud bilvosita tasarrufidan chiqarishi ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan yirik bitimlarni tuzish to'g'risidagi qarorlarni qabul qilish;

jamiyatning ustav kapitaliga (ustav fondiga) qo'shiladigan pulsiz hissalarining pul bahosini tasdiqlash to'g'risidagi qarorni qabul qilish;

jamiyatning ustav kapitalidagi (ustav fondidagi) o'ziga tegishli ulushni (ulushning bir qismini) uchinchi shaxslarga garovga qo'yilishiga jamiyatning roziligini berish;

qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal qilish.

Jamg'arma muassisining mutlaq vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar uning tomonidan jamiyatning kuzatuv kengashi hal etishi uchun, shuningdek, jamiyatning ijro etuvchi organi hal etishi uchun topshirilishi mumkin emas.

2-§. Kuzatuv kengashi vakolatlari

56. Kuzatuv kengashining a'zolari jamg'arma muassisi tomonidan uch yil muddatga saylanadi. Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

57. Jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organining, uning shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlari boshqaruv organlarining a'zolari, jamiyat tomonidan tashkil etilgan unitar korxonaning rahbari hamda ayni shu shu'ba, tobe xo'jalik jamiyatlarida va unitar korxonada mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar jamiyat kuzatuv kengashining a'zosi bo'lishi mumkin emas.

Jamiyat kuzatuv kengashi a'zosining ovoz berish huquqini o'zga shaxslarga, shu jumladan, kuzatuv kengashining boshqa a'zolariga o'tkazishiga yo'l qo'yilmaydi.

58. Jamiyat kuzatuv kengashining son tarkibi uch nafar a'zodan iborat etib belgilanadi, kuzatuv kengashi tarkibiga bir nafar mustaqil a'zo kiritiladi. Bunda mustaqil a'zolikka nomzodlar kuzatuv kengashi tomonidan, qoida tariqasida, jamg'arma muassisi ko'rib chiqishi uchun tanlov asosida ko'rsatiladi.

Jamg'armaning muassisi kuzatuv kengashining son tarkibiga o'zgartirish kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.

59. Quyidagilar kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi mumkin emas:

so'nggi uch yil ichida jamiyatda yoki uning affillangan shaxslarida ishlagan shaxs;

jamiyat ustav kapitalining (ustav fondining) besh va undan ortiq foiziga egalik qiluvchi (to'g'ridan-to'g'ri va affillangan shaxslar orqali) shaxs;

jamiyatning va uning affillangan shaxsining yirik mijozi va yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lgan shaxs. Bunda qaysi shaxslar bilan bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming baravaridan ko'p bo'lgan summaga teng amaldagi shartnoma mavjud bo'lsa, o'sha shaxslar yirik mijoz va yirik yetkazib beruvchi deb e'tirof etiladi;

so'nggi uch yil ichida jamiyatga va jamiyatning affillangan shaxslariga auditorlik xizmatlarini ko'rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi;

ketma-ket olti yil davomida jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga kirgan shaxs;

jamiyat va uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lgan shaxs, bundan kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funksiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kelishuvlar mustasno;

jamiyatning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'nggi uch yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning yaqin qarindoshi yoki quda tomondan qarindoshi (ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, o'g'illari, qizlari, eri (xotini), shuningdek erining (xotining) ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) bo'lgan shaxs;

davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lgan shaxs.

Jamiyat kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi kuzatuv kengashining boshqa a'zolari bilan bir qatorda ushbu Ustavda belgilangan teng huquqlar va majburiyatlarga ega bo'ladi.

60. Jamiyat kuzatuv kengashining mutlaq vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

jamiyatning ijroiya organi bosh direktorini saylash (tayinlash) va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

jamiyatning ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash;

jamiyatning investitsiya siyosatini ma'qullash va uni jamg'armaning muassisiga tasdiqlash uchun kiritish;

jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash, bunda jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi jamiyat kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1-dekabridan kechiktirmay tasdiqlanishi lozim;

jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va jamiyat kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining auditini o'tkazish tashabbusi bilan chiqish;

tuzilishidan manfaatdorlik bo'lgan bitimlarni tuzish to'g'risidagi qarorni qabul qilish, bitim yoki bitimning predmeti bo'lgan mol-mulkning qiymati bo'yicha haq to'lash summasi jamiyatning oxirgi hisobot davridagi buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari asosida aniqlangan mol-mulki qiymatining besh foizidan ortiq bo'lgan hollar bundan mustasno;

yirik bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinadigan kundan oldingi oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari asosida aniqlangan jamiyat mol-mulki qiymatining yigirma beshdan to ellik foizigachasini tashkil etadigan mol-mulki olish, tasarrufdan chiqarish yoki jamiyat bevosita yoxud bilvosita tasarrufdan chiqarishi ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan yirik bitimlarni tuzish to'g'risidagi qarorlarni qabul qilish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda hududiy sanoat zonalarini tashkil etish bo'yicha loyihalar ro'yxatini tasdiqlash;

operatsion tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish, shu jumladan, loyiha guruhlari bilan o'zaro hamkorlik qilish hamda ularning loyihaviy takliflarini moliyalashtirish mexanizmini ko'zda tutuvchi nizomni tasdiqlash;

qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal qilish.

Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun jamiyatning ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas.

61. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisi kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, jamiyat kuzatuv kengashi a'zosi, ijroiya organi talabiga ko'ra chaqiriladi.

62. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisi, agar unda a'zolari ishtirok etgan taqdirda, vakolatli hisoblanadi.

63. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi.

64. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilishda jamiyat kuzatuv kengashi raisining hal qiluvchi ovoz huquqi beriladi.

65. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng o'n kundan kechiktirmay tuziladi. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

majlisda ishtirok etadigan, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etadigan shaxslar;
majlisning kun tartibi;
ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;
qabul qilingan qarorlar.

66. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

67. Jamiyat kuzatuv kengashining qarori yig'ilishni o'tkazmay (birgalikda hozir bo'lmay) sirtidan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) qabul qilinishi mumkin. Bunday ovoz berish pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki uzatib beriladigan va qabul qilinadigan xabarlarining to'g'ri bo'lishini va ularning hujjatlar bilan tasdiqlanishini ta'minlovchi boshqa aloqa vositasida hujjatlarni ayirboshlash yo'li bilan o'tkazilishi mumkin.

68. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni jamiyatning ijroiya organiga ijro etish uchun topshiriladi.

3-§. Ijroiya organi vakolatlari

69. Jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi bosh direktori jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan besh yil muddatga lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

70. Jamiyatning kuzatuv kengashi raisi yoki kuzatuv kengashi belgilagan shaxs tomonidan jamiyat nomidan jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi bosh direktori bilan mehnat shartnomasi imzolanadi hamda unga to'lanadigan haq va/yoki kompensatsiyalar miqdori belgilanadi.

71. Bosh direktor jamiyatning ijro etuvchi organining umumiy faoliyatiga rahbarlik qiladi. Jamiyatning ijro etuvchi organi jamiyatning kuzatuv kengashiga hisobdordir.

72. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 485-moddasi normalari doirasida, bosh direktorning o'rinbosari (yoki unga tenglashtirilgan lavozimdagi shaxs) bosh direktor yo'qligida uning vazifasini vaqtincha bajarib turish yoki lavozim vazifalari taqsimoti asosida ayrim masalalar bo'yicha rahbar vazifasini bajarish o'z xizmat vazifalari jumlasiga kiruvchi shaxsdir.

73. Bosh direktor vazifalarini boshqa tashkilotlarning ijroiya organi rahbari lavozimi bilan birgalikda egallab turishga faqat jamiyat kuzatuv kengashining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

74. Jamiyat ijro etuvchi organining mutlaq vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:
jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, jamg'arma muassisining yoki jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno;

jamg'arma muassisining va jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi;
jamiyatning investitsiya siyosati loyihasini ishlab chiqadi, shu jumladan, unga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida takliflar tayyorlaydi;

investitsiya loyihalarini tanlash va moliyalashtirish ushbu loyihalarning o'zining investitsiya siyosatida belgilangan mezon va talablarni hisobga olgan holda amalga oshiradi, zaruriyat yuzaga kelgan taqdirda investitsiya vositachilari, maslahatchilari (konsultant), shu jumladan, xorijiy maslahatchilarni jalb qiladi;

tadbirkorlik faoliyatini kredit resurslaridan foydalanishi yo'llari orqali qo'llashda tijorat banklari vositasida investitsiyalar kiritadi;

investitsiyalarni kredit (qarz) olish yoki investorlarning pul mablag'larini jalb qilish, shu jumladan, qonunchilikda belgilangan boshqa usullari bilan jalb qiladi;

jamiyatning bosh direktori jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan, uning manfaatlarini ifodalaydi, jamiyat nomidan bitimlar tuzadi, tijorat banklarida milliy va xorijiy valyutada bank hisobraqamlari ochadi, jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlaydi, jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

jamiyatning tashkiliy tuzilmasini, shtatlarini, xarajatlarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

jamiyat nomidan vakillik qilish huquqi uchun ishonchnomalar beradi;

jamiyat xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzadi va ularni bekor qiladi, xodimlarga nisbatan rag'batlantirish choralari va intizomiy jazolarni qo'llaydi;

xodimlarning mehnatiga haq to'lash shakllarini, tizimlarini, miqdorini, turlarini va boshqa ijtimoiy kafolatlarini belgilaydi;

fuqarolik-huquqiy xususiyatga ega shartnoma tuzish sharti shaklida jamiyatga zarur bo'lgan mutaxassislarni, shu jumladan, xorijiy mutaxassislarni (ing. Expat) jalb qiladi;

jamiyatning bo'sh pul mablag'larini tijorat banklarining depozit hisobraqamlariga joylashtiradi;

yirik bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinadigan kundan oldingi oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari asosida aniqlangan jamiyat mol-mulki qiymatining yigirma besh foizigachasini tashkil etadigan mol-mulknini olish, tasarrufdan chiqarish yoki jamiyat bevosita yoxud bilvosita tasarrufidan chiqarishi ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan yirik bitimlarni tuzish to'g'risidagi qarorlarni qabul qiladi;

ushbu Ustav bilan jamg'arma muassisi va jamiyatning kuzatuv kengashi vakolatlari jumlasiga kiritilmagan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

75. Jamiyatning ijro etuvchi organi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Ustavga muvofiq amalga oshiradi.

4-bob. Jamiyatning ustav kapitali

76. Jamiyat ustav kapitalining (ustav fondi) miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar:

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan dastlabki ustav kapitali 739 493 108 185 so'm 93 tiyinni (Yetti yuz o'ttiz to'qqiz milliard to'rt yuz to'qson uch million bir yuz sakkiz ming bir yuz sakson besh so'm to'qson uch tiyin) ulushi 100 foizni tashkil etib, keyinchalik 100 million AQSh dollariga teng bo'lgan miqdorda shakllantiriladi;

kelgusida investorlar bilan loyihalarni hamkorlikda amalga oshirish doirasida jalb qilinadigan qo'shimcha investitsiyalarni hisobga olib, bosqichma-bosqich 1 milliard AQSh dollariga yetkaziladi.

Jamg'armaning muassisi investorlar tomonidan jamg'arma bilan birgalikda loyihalarga investitsiya kiritish to'g'risida qaror qabul qilingandan so'ng jamg'arma kapitalini shakllantiradi.

77. Jamiyat ustav kapitaliga (ustav fondiga) qo'shiladigan hissalar, ustav kapitalining (ustav fondining) ko'paytirilishi va uni kamaytirish, ustav kapitalidagi (ustav fondidagi) ulushining (ulushi bir qismining) jamiyatning boshqa ishtirokchilariga va uchinchi shaxslarga o'tishi, shu jumladan, jamiyatning foydasini jamiyat ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

78. Jamiyat bir yilda bir marta o'zining sof foydasini taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir. Jamiyatning taqsimlanadigan foydasi qismini aniqlash to'g'risidagi qaror jamg'armaning muassisi tomonidan qabul qilinadi.

79. Jamiyat foydasining uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash uchun mo'ljallangan qismi (dividendlar) ularning jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

80. Dividendlarni to'lash muddati va tartibi jamg'armaning muassisi qarorida belgilanadi. Bunda dividendlarni to'lash muddati foydani taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kundan oshmasligi kerak.

81. Jamiyat quyidagi hollarda o'z foydasini taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli emas:

jamiyatning butun ustav kapitali (ustav fondi) to'liq to'langunga qadar;

qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda jamiyat ishtirokchisi ulushining (ulushi bir qismining) haqiqiy qiymati to'langunga qadar;

agar bunday qarorni qabul qilish paytida jamiyat qonunga muvofiq to'lovga qobiliyatsizlik belgilariga javob bersa yoki agar mazkur belgilar jamiyatda shunday qaror qabul qilinishi natijasida paydo bo'lsa;

agar shunday qarorni qabul qilish paytida jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav kapitalidan (ustav fondidan) va zaxira fondidan kam bo'lsa yoki shunday qaror qabul qilinishi natijasida ularning miqdoridan kamroq bo'lib qolsa;

qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

82. Jamiyat foydani taqsimlanishi to'g'risida qaror qabul qilingan quyidagi hollarda jamiyat ishtirokchilariga foydani to'lashga haqli emas:

agar to'lash paytida jamiyat qonunga muvofiq to'lovga qobiliyatsizlik belgilariga javob bersa yoki agar mazkur belgilar jamiyatda to'lov natijasida paydo bo'lsa;

agar to'lash paytida jamiyatning sof aktivlari qiymati uning ustav kapitalidan (ustav fondidan) va zaxira fondidan kam bo'lsa yoki to'lash natijasida ularning miqdoridan kamroq bo'lib qolsa;

qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Ushbu holatlar tugaganidan keyin foydani taqsimlanishi to'g'risida qaror qabul qilingan foyda to'lanadi.

83. Jamiyat o'z ustav kapitalining (ustav fondining) o'n besh foizidan kam bo'lmagan miqdorda zaxira fondini vujudga keltirishi mumkin. Jamiyatning zaxira fondi jamg'armaning muassisi qarori bilan har yili sof foydadan ajratmalar qilish yo'li bilan shakllantiriladi.

84. Jamiyatning zaxira fondi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda uning zararlarini qoplash va jamiyat tomonidan jamiyatning ustav kapitalidagi (ustav fondidagi) ulushni (ulushning bir qismini) olish uchun mo'ljallanadi.

85. Jamiyat obligatsiyalarni qonunchilikda belgilangan tartibda chiqarishga va joylashtirishga haqli.

5-bob. Jamiyatning huquqlari va majburiyatlari

86. Jamiyat nomuayyan muddatga tuziladi. Jamiyat qonunchilikda "mas'uliyati cheklangan jamiyat" uchun ko'zda tutilgan barcha yuridik shaxs huquqlariga, shu jumladan, qonunchilik bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega.

87. Jamiyat o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan huquqlarni olishi, majburiyatlarga ega bo'lishi, suda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

88. Jamiyat ishtirokchisining huquqlari:

ushbu Ustavda belgilangan tartibda jamiyatning ishlarini boshqarishda ishtirok etish;

jamiyatning faoliyati to'g'risida axborot olish hamda uning buxgalteriya daftarlari va boshqa hujjatlari bilan tanishish;

foydani taqsimlashda ishtirok etish;

qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda jamiyatning ustav kapitalidagi (ustav fondidagi) o'z ulushini yoxud uning bir qismini sotish yoki o'zga tarzda voz kechish;

qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda istalgan vaqtda jamiyatdan chiqish;

jamiyat tugatilgan taqdirda, kreditorlar bilan hisob-kitob qilinganidan keyin qolgan mol-mulkning bir qismini yoki uning qiymatini olish.

Jamiyat ishtirokchisi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

89. Jamiyat ishtirokchisining majburiyatlari:

ushbu Ustavda nazarda tutilgan tartibda, miqdorda, usullarda va muddatlarda hissa qo'shish;

jamiyat faoliyati to'g'risidagi sir tutilgan axborotni oshkor qilmasligi shart.

Jamiyat ishtirokchisining qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlari ham bo'lishi mumkin.

Jamiyat o'z ishtirokchilarining majburiyatlari yuzasidan javob bermaydi.

90. Jamiyat O'zbekiston Respublikasida belgilangan buxgalteriya hisobi va hisobotining milliy standartlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritadi.

91. Jamiyatning hisobot yili kalendar yilning 1-yanvaridan 31-dekabrigacha (31-yanvar ham kiradi) belgilanadi.

92. Jamiyat qonunchilik hujjatlarida belgilangan davlat organlariga yillik moliyaviy hisobotni taqdim etadi. Buxgalteriya hisobining milliy standartlariga (BHMS) asosan tuzilgan yillik moliyaviy hisobot hisobot yilidan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (IFRS) asosan tuzilgan yillik moliyaviy hisobot hisobot yilidan keyingi yilning 1-mayidan kechiktirmay taqdim etiladi.

93. Jamiyatning aktivlari ustav kapitaliga kiritilgan ulushlar, jamiyat faoliyatidan olinadigan daromadlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi.

94. Jamiyatning xarajatlari jamg'arma faoliyatidan tushadigan pul mablag'lari va uning ustav kapitali, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga qoplanadi.

95. Jamiyat qonunchilikda belgilangan tartibda boshqa yuridik shaxslarning muassisi bo'lishga yoki ularning ustav kapitalida (ustav fondida) boshqacha tarzda ishtirok etishga, vakolatxonalar va filiallar tuzishga haqlidir.

96. Quyidagi hujjatlar jamiyatning faoliyati mobaynida saqlanishi shart:

jamiyatning ta'sis hujjatlari, shuningdek, jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritilgan hamda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan o'zgartishlar va qo'shimchalar;

jamg'arma muassisining jamiyatni tashkil etish va jamiyatning ustav kapitaliga (ustav fondiga) qo'shiladigan pulsiz hissalarining pul bahosini tasdiqlash to'g'risidagi qarorni, shuningdek, jamiyatni tashkil etish bilan bog'liq boshqa qarorlari;

jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat;

jamiyatning o'z balansida turgan mol-mulkka bo'lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlar;

jamiyatning filiallari va vakolatxonalari to'g'risidagi nizomlar;

jamg'armaning muassisi, jamiyat kuzatuv kengashi va jamiyatning ijro etuvchi organining qarorlari va bayonnomalari;

qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hujjatlar.

Jamiyat ushbu nazarda tutilgan hujjatlarni o'zining ijro etuvchi organi joylashgan yerda yoki jamiyat ishtirokchisiga ma'lum bo'lgan va u uchun qulay bo'lgan boshqa joyda saqlaydi.

6-bob. Jamiyatda affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish

97. Jamiyat bitim tuzishidan manfaatdor shaxslar mazkur jamiyatga nisbatan affillangan shaxslar deb e'tirof etiladi.

Quyidagilar jamiyatning affillangan shaxslari deb e'tirof etiladi:

1) ushbu jamiyat ustav kapitalining (ustav fondining) yigirma foiz va undan ortiq foiziga egalik qiluvchi yuridik shaxs;

2) ushbu jamiyat ustav kapitalining (ustav fondining) yigirma foiz va undan ortiq foiziga yaqin qarindoshlari bilan birgalikda egalik qiluvchi jismoniy shaxs;

3) ushbu jamiyat kuzatuv kengashining a'zosi, jamiyat bosh direktorining vakolatlarini amalga oshirayotgan shaxs;

4) ushbu jamiyat qaysi yuridik shaxs ustav kapitalining (ustav fondining) yigirma foizi va undan ortiq foiziga egalik qilsa, o'sha yuridik shaxs;

5) ushbu jamiyatning shu'ba xo'jalik jamiyati bo'lgan yoki ushbu jamiyat qaysi jamiyatning shu'ba xo'jalik jamiyati bo'lsa, o'sha jamiyatning shu'ba xo'jalik jamiyati bo'lgan yuridik shaxs;

6) ushbu jamiyat ustav kapitalining (ustav fondining) yigirma foizi va undan ortiq foiziga egalik qiluvchi ayni bir shaxs qaysi yuridik shaxs ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma foizi va undan ortiq foiziga egalik qilsa, o'sha yuridik shaxs;

7) ushbu jamiyat kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etuvchi ayni bir shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxs kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etsa, o'sha yuridik shaxs;

8) ushbu jamiyatning bosh direktori bo'lgan ayni bir shaxs yoki uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxs ijroiya organining rahbari vazifasini amalga oshirayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxs;

9) yaqin qarindoshlari bilan birgalikda ushbu jamiyat kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etuvchi shaxs qaysi yuridik shaxs rahbarining yoki ijroiya organi a'zosining vazifasini amalga oshirayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxs;

10) ushbu jamiyat bosh direktorining vakolatlarini amalga oshirayotgan shaxs yaqin qarindoshlari bilan birgalikda qaysi yuridik shaxs jamiyat kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etsa, o'sha yuridik shaxs;

11) ushbu jamiyat bilan bitta xo'jalik birlashmasiga kiruvchi yuridik shaxs.

98. Affillangan shaxs jamiyat bilan bitim tuzishda affillangan ekanligi to'g'risida tuzilishi kutilayotgan bitim haqidagi ma'lumotlarni, shu jumladan, bitimda ishtirok etayotgan shaxslar, bitim predmeti to'g'risidagi ma'lumotlarni, tegishli shartnomaning muhim shartlarini batafsil ko'rsatgan holda yozma bildirish yuborish orqali jamiyatni xabardor etishi shart.

Affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar to'g'risidagi axborot, shu jumladan, affillangan shaxslarning yozma bildirishlari va bitimlar bo'yicha qabul qilingan qarorlarning to'liq ta'riflari, qaror qabul qilgan shaxslar haqidagi ma'lumotlar hamda affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish chog'idagi manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlar jamiyat yillik hisobotining bir qismidir.

99. Jamiyatning affillangan shaxsi bilan tuziladigan bitim to'g'risidagi, tuzilishi kutilayotgan bitim tarafining yozma bildirishida ko'rsatiladigan axborot jamiyatning ijroiya organi va ichki audit xizmati (agar u mavjud bo'lsa) tomonidan o'rganiladi. Jamiyatning ijroiya organi tomonidan o'rganish yozma bildirish olinganidan keyin uch ish kuni ichida amalga oshiriladi.

Affillangan shaxs bilan tuzilishi kutilayotgan bitimni jamiyat ijroiya organi va ichki audit xizmati tomonidan o'rganish natijalari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va bitimni o'rganishda ishtirok etgan barcha shaxslar tomonidan imzolanadi. Bayonnomada bitimning yuridik, moliyaviy, texnik va boshqa muhim jihatlari hamda uning jamiyat faoliyatiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'siri nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

100. Jamiyatning ijroiya organi jamiyat kuzatuv kengashini affillangan shaxs bilan tuzilishi kutilayotgan bitimni o'rganish natijalari bayonnomasini ilova qilgan holda yozma shaklda xabardor qiladi.

Jamiyatning kuzatuv kengashi affillangan shaxs bilan tuziladigan bitim to'g'risidagi axborotni o'rganadi va affillangan shaxsning yozma bildirishi jamiyatga kelib tushgan sanadan e'tiboran o'n besh kundan kechiktirmay bitim bo'yicha qaror qabul qiladi.

Agar jamiyat kuzatuv kengashining ikki va undan ortiq a'zosi affillangan shaxs bo'lsa, bitim bo'yicha qaror jamiyat ishtirokchisi tomonidan qabul qilinadi.

Jamiyatning affillangan shaxsi jamiyatning kuzatuv kengashi mazkur bitim yuzasidan qaror qabul qilayotganda muhokamada ishtirok etishga haqli emas va ovoz berish huquqiga ega emas.

Affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitimni ma'qullash haqidagi qaror majlisda ishtirok etayotgan jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi. Bunda affillangan shaxs bilan tuzilayotgan, qiymati jamiyat sof aktivlari qiymatining o'n yoki undan ko'p foizini tashkil etadigan bitim tuzish to'g'risidagi qaror mol-mulkning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq baholovchi tashkilot tomonidan belgilangan bozor qiymati hisobga olingan, mustaqil tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan bitimning shartlari o'rganilgan holda majburiy tartibda qabul qilinadi.

Jamiyatning ijroiya organi tuzilishi kutilayotgan bitim tarafini affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitim bo'yicha qabul qilingan qaror haqida yozma shaklda xabardor qiladi.

Agar affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitim ayni bir vaqtda yirik bitim bo'lsa, bitimni tuzish tartibiga qonunchilida belgilangan yirik bitim tuzishga doir qoidalar qo'llaniladi.

101. Affillangan shaxs bilan tuzilgan bitim bo'yicha jamiyat ishtirokchisi mazkur bitimni ma'qullash haqida qabul qilingan qarordan norozi bo'lgan yoxud jamiyat ishtirokchisi qaror qabul qilinishida ishtirok etmagan taqdirda nizolashishi mumkin.

Jamiyat ishtirokchining talabiga ko'ra uch ish kuni ichida jamiyat ishtirokchisiga affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitim haqida bosh direktor tomonidan imzolangan tegishli axborotni:

affillangan shaxs bilan tuzilishi kutilayotgan bitim tarafi yozma bildirishining;

bitimni o'rganish natijasi bayonnomasining;

bitimni ma'qullash to'g'risida qabul qilingan qarorning;

tegishli shartnomaning, agar u tuzilgan bo'lsa, ko'chirma nusxalarini ilova qilgan holda yozma shaklda taqdim etishi shart.

Jamiyat ishtirokchining talabiga ko'ra jamiyat ishtirokchisiga affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitimga taalluqli bo'lgan boshqa axborotni ham taqdim etishi mumkin.

Affillangan shaxs bilan tuzilgan qaysi bitim natijasida jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa yoxud ushbu bitim tuzilganligi oqibatida kelgusida zarar yetkazilishi mumkin bo'lsa, jamiyat ishtirokchisi o'sha bitimni haqiqiy emas deb topish yuzasidan bevosita yoxud jamiyat ishtirokchisi

nomidan da'vogar bo'lib chiqishga haqli bo'lgan vakolatli davlat organlari orqali sudga murojaat qilishga haqli.

Jamiyat ishtirokchisi affillangan shaxs bilan tuzilgan qaysi bitim natijasida jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa yoxud ushbu bitim tuzilganligi oqibatida kelgusida zarar yetkazilishi mumkin bo'lsa, o'sha bitimni tuzishga doir talablar buzilishining mavjud belgilarini o'rganish uchun mustaqil ravishda auditorlik tashkilotini jalb etishga haqli. Sud tomonidan bitim tuzishga doir talablar buzilganligi fakti aniqlangan taqdirda, jamiyat sudning qarori qonuniy kuchga kirgan paytdan e'tiboran bir oy muddatda jamiyat ishtirokchisining auditorlik tashkilotini jalb etishga doir xarajatlarning o'rnini mazkur xizmatlarning bozor qiymatidan ko'p bo'lmagan miqdorda qoplashi shart.

Affillangan shaxs bilan tuzilgan bitim quyidagi hollarda sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkin:

ushbu Ustavda bitim tuzish bo'yicha belgilangan talablarga rioya etilmaganda;

bitimni jamiyat uchun zararli deb topishga doir asoslar mavjud bo'lganda;

bitimni tuzishda manfaatlar qarama-qarshiligi mavjud bo'lganda;

qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslar mavjud bo'lganda.

Affillangan shaxs bilan tuzilgan bitim quyidagi holatlardan biri mavjud bo'lganda haqiqiy emas deb topilishi mumkin emas:

mazkur bitimning tuzilishi jamiyatga yoki da'vo bilan sudga murojaat qilgan jamiyat ishtirokchisiga zarar yetkazilishiga sabab bo'lganligi yoki zarar yetkazilishiga sabab bo'lishi mumkinligi isbotlanmagan bo'lsa;

mazkur bitim bo'yicha zararlilar bitim taraflarining harakatlariga bog'liq bo'lmagan holatlarning (fors-major holatlarning) natijasi bo'lganligi isbotlangan bo'lsa;

mazkur bitimning ushbu Ustavda nazarda tutilgan tartibda keyinchalik ma'qullanganligi dalillari ishni sudda ko'rib chiqish paytida taqdim etilgan bo'lsa.

102. Affillangan shaxs bilan tuzilgan bitimni o'rganishni amalga oshirgan shaxslar bitim bo'yicha xulosa va yakunlarning ishonchiligi uchun javobgar bo'ladi.

Jamiyatning sud tomonidan aybi isbotlangan affillangan shaxsi yetkazilgan zararining, jamiyatning affillangan shaxsi bilan tuzilgan bitimni va da'voni sudda ko'rib chiqish bilan bog'liq xarajatlarning o'rnini qoplashi shart.

103. Affillangan shaxs bilan bitimlar tuzishdagi istisnolar, ushbu Ustavda nazarda tutilgan qoidalar quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

tuzilishidan jamiyatning ishtirokchisi manfaatdor bo'lgan bitimlarga;

jamiyatning ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun tuziladigan bitimlarga, agar qonunchilikka ko'ra realizatsiya qilishning maxsus tartibi belgilanadigan monopol mahsulot, moddiy-texnika resurslarining strategik turlari bitim predmeti bo'lsa;

birja va kimoshdi savdolari orqali tuziladigan bitimlarga, agar jamiyatning ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalaniladigan xomashyo va materiallar, shuningdek, jamiyat tomonidan ishlab chiqariladigan tayyor mahsulot bitim predmeti bo'lsa;

jamiyatni qayta tashkil etishga doir tartib-taomillarni amalga oshirishda;

qimmatli qog'ozlarni tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolarida realizatsiya qilishda;

jamiyat va affillangan shaxs o'rtasidagi bitimni (bitimlarni) ma'qullash haqida jamiyat kuzatuv kengashining yoki jamiyat ishtirokchisining ushbu Ustavda belgilangan tartibda oldindan qabul qilingan qarori mavjud bo'lganda;

qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa ko'rinishlarda.

7-bob. Jamiyatda manfaatlar to'qnashuvi

104. Manfaatlar to'qnashuvi shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning yoki jamiyatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan mavjud manfaatlar to'qnashuvi yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi hisoblanadi.

105. Quyidagi shaxslar jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida yoxud saylab qo'yiladigan yoki tayinlanadigan lavozimlarda mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan boshqaruv xodimiga (keying o'rinlarda – jamiyatning xodimi) aloqador shaxslar deb e'tirof etiladi:

jamiyat xodimining yaqin qarindoshlari;

jamiyatning xodimi va/yoki uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav kapitali (ustav fondi) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa, o'sha yuridik shaxs;

jamiyatning xodimi yoxud uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsda boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxs.

106. Jamiyatning xodimi:

o'z lavozim majburiyatlarini yoki xizmat vakolatlarini vijdonan bajarishi va ularning bajarilishiga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan o'z shaxsiy manfaatlar bilan bog'liq har qanday harakatlardan o'zini tiyishi;

lavozim majburiyatlarini yoki xizmat vakolatlarini bajarish chog'ida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligi;

mavjud manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, o'z ish yurituvidagi hujjatlar bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar o'zining bevosita rahbarini (yuqori turuvchi rahbarini) xabardor qilishi;

o'zining bevosita bo'ysunuvidagi xodimlarni yoki boshqa xodimlarni bevosita yoki bilvosita o'zining shaxsiy manfaatlarini ko'zlovchi harakatlarga (harakatsizlikka) majburlamasligi;

o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan jamiyat nazorati ostidagi tashkilotdan yoki uning tarkibiy bo'linmasidan ishga qabul qilish to'g'risida takliflar kelib tushganligi holati haqida bir ish kuni ichida xabar berishi;

boshqa xodimlarga nisbatan o'ziga ma'lum bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi hollari to'g'risida xabar berishi;

ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish maqsadida jamiyatning so'roviga ko'ra ma'lumotlar taqdim etishi shart.

107. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida jamiyatning xodimi:

xizmat mavqeyini suiiste'mol qilish orqali shaxsiy naf olishga;

manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotni oshkor etish chog'ida ma'lumotlarni yashirishga yoxud bila turib yolg'on yoki noto'g'ri axborot taqdim etishga;

biri boshqasiga bo'ysunuvchi yoki biri boshqasining nazoratidagi tashkilotlarda o'rindoshlik bo'yicha ishlashga, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

tijorat tashkilotlarining ta'sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) bo'lishga, bundan aksiyadorlik jamiyatlarining erkin muomalada bo'lgan aksiyalarining o'n foizigacha egalik qilish hollari mustasno (ushbu cheklov faqat jamiyatning rahbariga nisbatan tatbiq etiladi);

o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan jamiyatning nazoratida bo'lgan tadbirkorlik faoliyati subyektining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilishga, shuningdek ushbu tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organi a'zosi bo'lishga, bundan qonunchilikka muvofiq lavozim majburiyatlari hisoblanadigan hollar mustasno. Bunda jamiyat nazoratida bo'lgan tadbirkorlik faoliyati subyektlarining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilgan yoxud mazkur tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organlari a'zosi bo'lgan shaxs mazkur jamiyatda xodim lavozimini egallagan hollarda, u qonunchilikda belgilangan tartibda ushbu aksiyalarni yoki ulushlarni bir oy ichida realizatsiya qilishi, boshqaruv organlarining a'zolidan chiqishi kerak;

o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan jamiyatda o'ziga taalluqli bo'lgan ishlarni ko'rib chiqishda yoki o'ziga aloqador shaxslarga taalluqli bo'lgan ishlarni ko'rib chiqishda vakil sifatida ishtirok etishga, agar u qonunchilikka muvofiq qonuniy vakil bo'lmasa;

o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan tashkilotning mol-mulkini sotib olishda yoki ijaraga olishda o'zi ishtirok etishga haqli emas (ushbu cheklov jamiyatning xodimiga aloqador shaxslarga nisbatan ham qo'llaniladi).

Jamiyat xodimi lavozim majburiyatlarining yoki xizmat vakolatlarining o'ziga xos xususiyati hisobga olingan holda, unga nisbatan qonunchilikda belgilangan boshqa cheklovlar qo'llanilishi mumkin.

108. Manfaatlarni to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda qabul qilingan qarorlar yoki tuzilgan bitimlar sud tartibida haqiqiy emas deb topiladi.

Manfaatlarni to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda qabul qilingan qaror yoki tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, ushbu qaror qabul qilinganligi yoki bitim tuzilganligi natijasida olingan foyda bitim bo'yicha olingan hamma narsani qaytarib berish to'g'risida talab qo'yilmagan holda, sud tartibida davlat daromadiga o'tkaziladi. Bunda haqiqiy emas deb topilgan bunday bitimning ijrosi bilan bog'liq xarajatlarning o'rni manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ygan shaxsning hisobidan qoplanadi.

Manfaatlarni to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda qabul qilingan qaror yoki tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilganligi natijasida jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan, jamiyatga yetkazilgan zarar jamiyatning aybdor xodimlaridan regress tartibida undirib olinishi mumkin.

8-bob. Jamiyatda axborot siyosati va ma'lumotlar maxfiyligi

109. Axborot siyosati maqsadi jamiyat, investorlar va boshqa manfaatdor shaxslarning ular tomonidan har tomonlama baholangan investitsiyalar yuzasidan qarorlar qabul qilinishi uchun muhim hisoblangan jamiyat faoliyati to'g'risida o'z vaqtida va asosli ma'lumotlar olish bo'yicha axborot ehtiyojlarini qondirish orqali jamiyat faoliyatining ochiqqligini ta'minlashdan iborat.

110. Jamiyatda uchinchi shaxslar uchun noma'lumligi tufayli potensial qiymatga ega tijorat sirini o'z ichiga olgan, erkin holda foydalanish imkoni bo'lmagan ma'lumot maxfiy hisoblanadi va jamiyat ushbu ma'lumotning maxfiyligini saqlash bo'yicha choralar ko'radi.

111. Jamiyatning investorlar va ular bilan bitimlar to'g'risida uchinchi shaxslarga noma'lum bo'lgan, oshkor qilinishi jamiyatning investitsiyalar qiymatiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi va kapital bozorining bir ishtirokchisiga boshqalarga nisbatan ustuvorlik taqdim qilishi mumkin bo'lgan har qanday ma'lumotlar insayd ma'lumotlar hisoblanadi.

112. Tijorat siri va ma'lumot maxfiyligini ta'minlash bo'yicha belgilangan tartibda sir saqlanishi zarur bo'lgan ma'lumotlar oshkor etilmasligi lozim.

Ma'lumotlarni oshkor qilmaslik to'g'risida bitim (Non-disclosure agreement, NDA) uchinchi shaxslarning unga kirishini cheklagan holda materiallar yoki boshqa ma'lumotlarni o'zaro almashish maqsadida kelishuv har qanday maxfiy ma'lumotlarning tarqalishini oldini olishga xizmat qiladi.

113. Jamiyat xodimlari bilan mehnat shartnomalariga maxfiy axborotni oshkor qilmaslik to'g'risida shartlar kiritiladi.

9-bob. Jamiyatning javobgarligi

114. Jamiyatning kuzatuv kengashi va/yoki uning investitsiya qo'mitasi a'zolari, jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi o'z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini bajarishda jamiyat manfaatlarini ko'zlab halol va oqilona harakat qilishlari kerak.

115. Jamiyatning kuzatuv kengashi va/yoki uning investitsiya qo'mitasi a'zolari, jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi unga o'zlarining aybli harakatlari (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan zarar uchun, agar qonun hujjatlarida boshqa asoslar va javobgarlik miqdorlari ko'rsatilgan bo'lmasa, jamiyat oldida javobgar bo'ladi. Bunda jamiyatga zarar yetkazilishiga olib kelgan qarorga qarshi ovoz bergan yoki ovoz berishda ishtirok etmagan jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari, jamiyatning investitsiya qo'mitasi a'zolari javobgar bo'lmaydilar.

116. Jamiyat kuzatuv kengashi va/yoki uning investitsiya qo'mitasi a'zolarining, jamiyat yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organining javobgarligi asoslari va miqdorini aniqlashda ish muomalasi odatlari va ish uchun ahamiyatli boshqa holatlar e'tiborga olinmog'i lozim.

117. Agar ushbu Ustavga muvofiq bir necha shaxs javobgar bo'lsa, ularning jamiyat oldidagi javobgarligi solidardir bo'ladi.

118. Jamiyat yoki uning ishtirokchisi jamiyat kuzatuv kengashi va/yoki uning investitsiya qo'mitasi a'zosi va jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi tomonidan jamiyatga yetkazilgan zarar o'rni qoplash to'g'risidagi da'vo bilan sudga murojaat etishga haqlidir.

119. Agar jamiyatning ijro etuvchi organi tomonidan yirik bitim yoki affillangan shaxslar bilan bitim tuzish tartibi buzilganligi natijasida jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa va bunda jamiyat bosh direktorining aybi qonunchilikda belgilangan tartibda isbotlansa, jamiyatning kreditorlar oldidagi qarzdorligini qoplash uchun uning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda jamiyatning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi.

10-bob. Yakunlovchi qoida

120. Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

121. Ushbu Ustavda nazarda tutilmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.